

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.K.Kurbaniyazova</b>	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi .....	106
<b>Sh.D.Shodmonova</b>	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati .....	110
<b>A.I.Samijonov</b>	
“Xavfsizlik” va “Kiberxavfsizlik” atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi .....	114
<b>N.X.Djalalova</b>	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi .....	119
<b>I.Z.Nazarova</b>	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari .....	123

---

ТАРИХ

<b>A.B.Musayev</b>	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi .....	129
<b>Ф.А.Эгамбердиев</b>	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса .....	133
<b>M.M.Xolmatov</b>	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlarini.....	138
<b>N.R.Israilov</b>	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
<b>O.B.Nizomiddinov</b>	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi .....	149

---

АДАБИЙОТШУНОСЛИК

<b>Q.V.Yo'lchiyev</b>	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili .....	156
<b>A.Badalova</b>	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace" .....	161
<b>S.F.Yuldosheva</b>	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi .....	166
<b>D.I.Nazarova</b>	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi .....	170
<b>S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova</b>	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning “Baldan so'ng” hikoyasi misolida).....	175
<b>M.R.Oxunova</b>	
Sharlotta Bronte “Jeyn Eyr” romanida xarakter tasviri .....	178
<b>L.Hasanova</b>	
Aesthetics of the literary direction romanticism .....	182
<b>Q.V.Yo'lchiyev</b>	
Abdulla sher sonetlari tahlili .....	186
<b>Z.F.Shukurova</b>	
“Tarixi Rashidiy” asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini .....	192

---

TILSHUNOSLIK

<b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Zar” va “Zarra” asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida .....	198



UO'K: 811.512.133.43

**NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI “ZAR” VA “ZARRA” ASOSLARI  
BILAN BOG‘LIQ LEKSEMALAR XUSUSIDA****ABOUT LEXEMAS RELATED TO THE BASICS “ZAR” AND “ZARRA” IN THE NAVOI  
EPIC “SADDI ISKANDARI”****О ЛЕКСЕМАХ, СВЯЗАННЫХ С ОСНОВАМИ «ЗАР» И «ЗАРРА» В ЭПОСЕ НАВОИ  
«САДДИ ИСКАНДАРИ»****Alimova Zarifa Vaxobovna** Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida dotsenti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD)**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida shoir tomonidan qo‘llanilgan forsiy so‘zlar xususida so‘z boradi. Asardagi forsha “zar” va “zarra” so‘zlarining etimologik xususiyatlari, ularning leksik ma‘nolari, forsch-tojikcha lug‘atlardagi izohlarga asoslanganligi, boshqa manbalarda keltirilgan izohlarga taqqoslanganligi, forsha so‘zlarning Navoiy asarlari izohli lug‘atidagi leksik ma‘nolari yuzasidan ilmiy qarashlar keltirilgan. “Zar” va “zarra” leksemalari asosida yasalgan forsiy so‘zlar izohi maqolaning asosiy maqsadi qilib belgilandi. Maqolada keltirilgan forsha so‘zlarning leksik va semantik jihatdan ma‘nolari izohlangan, ular asosida shaxs otlari, sifatlar, ravishlar hosil qilingani misollar orqali ochib berilgan.

**Аннотация**

В данной статье идет речь о персидских словах, которых использовал поэт в произведении Алишера Навои «Садди Искандари». Предоставлены научные мнения узбекских языковедов и этимологическая характеристика персидских слов «зар» и «зарра», их лексические значения, на основе комментариев в персидско-таджикских словарях, сравнение с комментариями, приведенными в других источниках, лексические значения персидских слов в аннотированном словаре Навои. Объяснение персидских слов на основе лексем «зар» (золото) и «зарра» (частица) было определено как основная цель статьи. Объясняются лексические и семантические значения представленных в статье персидских слов, а также на примерах выявляется, что на их основе образуются личные существительные, прилагательные и наречия.

**Abstarct**

This article talks about the Persian words used by the poet in Alisher Navoi's work "Saddi Iskandari". The etymological characteristics of the Persian words "zar" and "zarra" in the work, their lexical meanings, based on comments in Persian-Tajik dictionaries, comparison with comments given in other sources, lexical meanings of Persian words in the annotated dictionary of Navoi's works scientific opinions are presented. The explanation of the Persian words based on the lexemes "zar" (gold) and "zarra" (particle) was defined as the main goal of the article. The lexical and semantic meanings of the Persian words presented in the article are explained, and it is revealed through examples that personal nouns, adjectives and adverbs are formed on the basis of them.

**Kalit so‘zlar:** forsha-tojikcha so‘zlar, lug‘aviy birlik, so‘z semantikasi, shaxs otlari, ma‘nodosh so‘zlar, izofali birikmalar, sifat, ravish.

**Ключевые слова:** персидско-таджикские слова, лексическая единица, семантика слова, личные существительные, синонимы, изафетные сочетания, имена прилагательные, наречия.

**Key words:** Persian-Tajik words, lexical unit, word semantics, personal nouns, synonyms, izophetic compounds, adjectives, adverbs.

**KIRISH**

Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining rivoji uchun katta xizmat qilgan shoir va adibdir. Bugungi kunda Alisher Navoiy asarlarini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazardan ilmiy tadqiq etish har qachongidan ham dolzarb vazifaga aylandi. Navoiy asarlarini o‘qib-anglashimiz uchun uning tilini tushunishimiz zarur. Buyuk shoir asarlari tilini tushunishimiz uchun asar tilida shoir tomonidan qo‘llangan turkiy, forsiy va arabiy so‘zlarning ma‘nolarini mukammal o‘rgangan bo‘lishimiz kerak. Alisher Navoiy turkiy va forsiy tilda ijod qilganligi uchun uni zullisonayn shoir sifatida butun dunyoga tanilgani ham bejiz emas. Tadqiqotchilarning e‘tirofiga ko‘ra Navoiy davrida

## TILSHUNOSLIK

fors tili adabiyoti o'zbek tili adabiyotiga nisbatan boyroq tajribaga ega bo'lgan. Fors tilining grammatik qonun-qoidalari birmuncha ishlangan va qofiya-lug'at kitoblari ham yaratilgan bo'lib, fors tilida ijod etish ancha yengil va osonroq edi. Shuning uchun ham ko'p o'zbek shoirlari o'z asarlarini fors tilida yozar edilar [7,69].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Alisher Navoiy asarlari nafaqat o'zbek tilshunoslari yoki adabiyotshunoslari tomonidan o'rganilgan, balki jahon tilshunoslari va adabiyotshunoslari tomonidan ham tadqiq etib kelingan va kelinmoqda. Navoiy ijodini o'rganishda S.G'aniyeva, B.Abdullayev, Yo.Is'hoqov, I.Haqqul, A.Hayitmetov, A.Qayumov, H.Jo'rayev, A.Hojimuhamedov kabi adabiyotshunos olimlar munosib hissa qo'shganlar. O'zbek tilshunoslaridan B.Bafoyev, A.Nishonov, E.Umarov, S.Ashirboyev, A.Rustamov, M.Qodirov, F.Hayitmetov, N.Umarova, M.Akbarova, D.Abduvaliyeva, N.Abduvaliyeva va yana bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari Navoiy asarlarini o'rganish bilan bog'liqdir.

Tilshunos N.Umarovning Navoiy asarlaridagi nabotot olamiga oid so'zlar va ularning etimologiyasiga oid talqinlari diqqatga sazovordir [10, 59-61]. S.Soyipov va X.Xolmurodovlar Navoiyning "Lison ut-tayr" asari tilida qo'llangan forscha yasama otlarni tadqiq qilganlar [8,58-62], shuningdek, "Farhod va Shirin" dostonidagi forscha fe'llarni ham ilmiy jihatdan o'rganganlar [7,69-72].

Q.Muhiddinov, X.Doniyorov, U.Sanaqulovlar Navoiy asarlarining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishga munosib hissa qo'shganlar. Xususan, tilshunos N.Umarova o'zining nomzodlik dissertatsiyasida Navoiy she'riyatida rang semasini ifodalovchi leksik birliklar, maqol va iboralarning uslubiy xususiyatlari, kitobat san'ati, shoir g'azallarida laff va nashr san'ati, tazod (antiteza), libos nomlari haqida batafsil to'xtalib o'tadi [9, 5-53].

Alisher Navoiy so'z mulkining sultoni sifatida e'tirof etilishi bejiz emas. E.Vohidov ta'kidlaganidek, adabiy ijod hamisha so'z olamiga sayohatdir. Ijodkor so'zni tirik jon deb biladi va so'z bilan so'zlashadi [3, 7]. Navoiy hazratlari ham so'zni tirik jon deb bilib, u bilan so'zlashgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. E.Vohidov so'z haqida o'z fikrlarini davom ettirib, shunday yozadi: Hazrat Navoiy to'pori qora xalq hisoblangan turkiy o'zbek tilini she'riyat osmoniga ko'tarib qo'yidilar. "Muhokamat ul-lug'atayn"ni yozib, ona tilimizni fors tilidan ustun bo'lsa ustunki, kam emasligini isbot qildilar. Navoiyning so'z boyligi beqiyos. Sababi Navoiy fors tilini qanchalar mukammal bilsalar, arab tilini ham shu qadar barkamol egallaganlar va ularni to'la istifoda etganlar. Turkiy tilning esa butun nazokatini "Muhokamat ul-lug'atayn"dagina emas, butun umr, butun ijod jarayonida namoyon qilganlar [3,11-12]. N.Umarova ta'kidlaganidek, "Alisher Navoiy tilining so'z boyligi 26 mingdan ortiq bo'lib, shoir asarlari asosida tuzilgan izohli lug'atlarda barcha sohaga oid so'zlarni uchratish mumkin. 1972-yilda tuzilgan I jildlik "Navoiy asarlari lug'ati"da shoir asarlarida qo'llangan 100dan ortiq rang-tus bildiruvchi sifatlarning ma'nosi izohlangan" [9,10].

Mazkur maqolada Navoiyning "Saddi Iskandariy" asarida uchragan forsiy "zar" va "zarra" so'zi va uning morfologik belgilari hamda ushbu so'zlar asosida hosil bo'lgan leksemalar haqida so'z yuritimiz.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

"Saddi Iskandariy" dostonida *zar* asosi bilan bog'liq leksemalar ko'p uchraydi hamda bunday leksemalar turli so'z turkumlariga oid ekanligi doston baytlarida o'z ifodasini topgan. Alisher Navoiy o'zining barcha asarlarida *zar* leksemasidan ko'p foydalangan. ANATILda *zar* leksemasi asosida hosil bo'lgan quyidagi so'zlarni uchratish mumkin [1, 618-623]:

- zarafshon - oltin sochuvchi;
- zarafshonlig' - zar sochuvchilik; saxovatlik, karamlilik;
- zarboft - zardan to'qilgan mato, zarbof, kimxob;
- zarvara - oltin qog'oz, yupqa oltin yaprog'i;
- zarvash - zarli, zarga o'xshash, bezatilgan;
- zargar - zargar, oltin, kumish bezaklar yasovchi;
- zardo'zluq - zardan tikilgan kashta;
- zarkash - oltin tusli bezak tortilgan;
- zarkor - zar surtuuvchi, zar bilan ishlangan;
- zarnigor - oltin bilan bezalgan, zarlangan;
- zarnishon - oltin qadalgan, zarlik; zar belgili;

zarrin – zarli, oltin bilan ziynatlangan;  
zarrinvash – oltinsimon, zarlikka o'xshash;  
zarristakash – zar bilan tikilgan.

Biz yuqorida ANATILda **zar** زر asosida hosil bo'lgan leksemalarning ayrimlarini misol keltirdik. Quyida esa "Saddi Iskandariy" dostonida **zar** va bu asos bilan yasalgan leksemalar ishtirokidagi baytlardan misollar keltiramiz hamda ularning qaysi turkumga oidligi, qanday vazifa bajarganligini izohlaymiz.

*Biri gunbadi charxi gardon aro,*

*Aningdekki, **zar** shamsa ayvon aro* (Saddi Iskandariy, 4-bet).

Ma'nosi: *Baland ko'shk peshtoqidagi quyoshmonand zarrin naqshlar singari ular yeri ham ko'kda aylanuvchi moviy gumbazlar arodir* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 6-7-betlar).

Baytdan ko'rinadiki, "zar shamsa" birikmasi "quyoshmonand zarrin naqsh" deya izohlanmoqda. Demak, ushbu baytdagi **zar** leksemasi sifat turkumiga tegishli bo'ib, aniqlovchi vazifasini bajargan.

**Zarkash** زركش ot turkumiga oid so'z bo'lib, *oltin tusli bezak tortuvchi* degan ma'noni ifodalaydi. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'atida **zarkash** so'zi sifat turkumiga oid ekani va *oltin tusli bezak tortilgan* deya tarjima qilinishi mumkinligi haqidagi izoh ham yo'q emas (ANATIL, 1-jild, 621-bet). Leksemaning **zar** qismi *zar*, *oltin*, *kash* qismi esa *kashidan-chizmoq*, *tortmoq* felining hozirgi zamon asosidir. Ma'limki, o'zbek tilida forscha-tojikcha *-kash* so'z yasovchi qo'shimchasi shaxs otlari yasashi haqida tilshunoslikka oid adabiyotlarda ta'kidlab o'tilgan. Jumladan, dardkash-dard chekuvchi, dildash-dil tortuvchi, zahmatkash-zahmat chekuvchi, mehnatkash-mehnat qiluvchi, suratkash-surat chizuvchi, qalamkash-shoir, adib, hazilkash-hazil qiluvchi, aravakash-arava tortuvchi, loykash-loy tortuvchi va h.k. [2, 162].

*Ne kog'azg'akim, kilki gavharfishon,*

*Qilib mehri **zarkash** anga **zarfishon*** (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Ma'nosi: *Qalami gavhar sochuvchi bu shoir o'z so'zlarini qog'ozga yozgan emas, yo'q, zar sochuvchi quyosh unga osmondan zarvara q sochib turgan* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 34-bet).

Mazkur baytdagi **zarfishon** leksemasi oltin *sochuvchi*, *saxovatli*; *nur taratuvchi* kabi ma'nolarga ega (ANATIL, 1-jild, 624-bet). *Zarfishon* leksemasining **zar** qismi *oltin*, **zar** ma'nosini ifodalaydi, *fishon* esa *afshondan* – *sochmoq*, *yoymoq* fe'lining hozirgi zamon asosidir.

ANATILda "Saddi Iskandariy" dostonidan *zarfishon* leksemasi ishtirokidagi quyidagi misol ham keltirilgan:

*Aningdek ki bo'lg'anda ul **zarfishon**,*

*Etib barcha olamg'a andin nishon* [1,624].

Quyidagi baytda ham **zarkash** leksemasi uchraydi:

*Birov ko'ngli ollindakim sofdur,*

*Agar **zarkash**, ar bo'ryobofdur* (Saddi Iskandariy, 36-bet).

Ma'nosi: *Agar birov sof ko'ngilli bo'lsa, xoh u zargar va xoh bo'yra to'quvchi bo'lishidan qat'iy nazar, o'z hunarida tengsiz bo'lgani uchun barchaga baravar seviklidir* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 39-bet).

Tarjimadan ko'rinadiki, **zarkash** leksemasi *zargar* deya izohlangan [1,624]. Demak, **zarkash** va *zargar* leksemalari bir-biriga sinonim holda qo'llanilishi mumkin.

E'tiboringizni quyidagi baytlarga qaratmoqchimiz:

*Aningdekki bo'lg'onda ul **zarfishon**,*

*Yetib borcha olamg'a andin nishon.*

*Alo, to quyosh **zarfishon** o'lg'usi,*

*Sahob ilgi gavharfishon o'lg'usi.*

*Qadah – bazmi ayshing aro **zarnigor**,*

*Javohir qilib oni gavharnigor* (Saddi Iskandariy, 54-bet).

Ma'nosi: *U to'kilgan oltinlardan barcha olam nurlangani singari, sendan el-yurt bahra oladi. Unutmangki, har qachon quyosh zar sochuvchi, bulut esa gavhar to'quvchidir. Sening bazmingdagi qadahlarga oltin suvi yugurtirilgan bo'lib, qimmatbaho toshlar uni xuddi gavhardan yasalgandek qilib ko'rsatadi* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 56-bet).

## TILSHUNOSLIK

Yuqorida keltirilgan baytda *zarfishon* leksemasi ikki o'rinda uchrab, *zar sochuvchi* ma'nosini ifodalaydi. *Zarfishon* leksemasi manbalarda *zarafshon* shaklida ham uchraydi. Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da *zarafshon* leksemasiga quyidagicha izoh keltirilgan: Bu sifat "oltin" ma'nosini anglatadigan *zar* otiga "soch" ma'nosini anglatadigan *afshondan* fe'lining *afshon* hozirgi zamon asosini qo'shib hosil qilingan bo'lib, "oltinday tovlanuvchi", "yarqirovchi" ma'nosini anglatadi [5, 102]. *Zarnigor* so'zi esa *zar bilan bezatilgan*, *zar suvi yugurtirilgan* degan ma'noni bildirib, sifat turkumiga oiddir. O'zbek va tojik xalqlarida qiz farzandlarga *Zarnigor* ismi ham berilish hollari juda ko'p uchraydi.

**Zarrot** ذرات ot turkumiga oid leksema bo'lib, *zarra* so'zining ko'pligidir (*zarralar*). Ushbu so'zga qo'shilgan –ot ko'plik qo'shimchasi arabiy bo'lib, bunday ko'plikdagi so'zlar o'zbek tilida ko'p uchraydi: *axborot*, *mavjudot*, *hayvonot*, *targ'ibot*, *tashkilot*, *g'aroyibot*, *sabzavot* va h.k. Savol tug'ilishi mumkin: agar *zarrot zarra* so'zining ko'pligi bo'lsa, uning birlik shaklidagi *a* harfi nima sababdan tushib qoladi? Buning javobi quyidagicha: arab-fors tillarida otlarning ko'plik shakllariga oid qoidalarda quyidagicha izoh keltirilgan: agar birlikda turgan otning oxirgi harfi *a* (fors tilida *e*) bo'lsa, bunday otlarga –ot ko'plik qo'shimchasi bevosita so'z asosiga qo'shilib, so'z oxiridagi *a* (fors tilida *e*) harfi yozuvda ham, talaffuzda ham tushib qoladi. Masalan: *مجلة majalla* (fors tilida *majalle*)- jurnal, *مجلات majallot*-jurnallar, *اداره idora* (fors tilida *edore*) – ادارات *idorot* –idoralar, *ماقولا maqola* (fors tilida *maqole*)- مقالات *maqolot* – maqolalar va h.k.

ANATILda *zarra* so'zining quyidagi ma'nolari uchrashi ta'kidlanadi: a) eng mayda bo'lak, eng kichik qism; *zarra*; b) chang, to'zon; c) quyosh nurlari; d) juda oz, andak; e) *zarracha* [1,622].

"Saddi Iskandariy" dostonida *zarrot* leksemasi ishtirok etgan quyidagi baytlarga diqqatni qaratsak:

*Yorurda quyosh partavidin saro,*

*Qachon farq o'lur fahm zarrot aro* (Saddi Iskandariy, 11-bet).

Ma'nosi: *Quyosh nurlari bilan munavvar qilgan chog'ida zarralar orasida farq borini kim fahmlabdi* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 13-bet).

Keltirilgan baytda *zarrot* leksemasi *zarralar* deya to'g'ri izohlangan. ANATILda *zarrot* leksemasining *zarralar* ma'nosidan tashqari *voqelikdagilar* degan ma'nosi ham uchrashiga "Saddi Iskandariy"dan quyidagi misol keltirilgan:

*Qachon kim qiron aylasa nayyirayn,*

*Ko'runurmu zarrot aro tushsa mayn* [1,623].

Quyida keltirilgan baytdagi *zarra* so'ziga arabiy –ot ko'plik qo'shimchasi emas, o'zbekcha –lar qo'shimchasi qo'shilgani baytning qofiyasi bilan uyg'unlashganidan dalolatdir:

*Qilur vaqt bu zarralarg'a karam,*

*Navoiyg'a lutf ayla bir zarra ham* (Saddi Iskandariy, 11-bet).

Ma'nosi: *Ana shu zarralarga karam qilganingda Navoiyga ham bir zarraga qilganchalik saxovat ko'rsatgin* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 13-bet).

Nasriy tabdilda baytning ikkinchi misrasidagi *zarra* so'zi bilan bog'liq izoh biroz to'g'ri emasdek ko'rinadi. Bizningcha, baytning birinchi misrasidagi *zarra* so'zi o'z ma'nosida qo'llangan bo'lsa, ikkinchi misradagi *zarra* leksemasi ravish turkumiga oid bo'lib, *bir oz*, *ozgina*, *andak* kabi ma'nolarni ifodalashi ma'lum bo'ladi. *Zarra* leksemasining ravish turkumiga tegishli ekani o'z oldidan kelgan *bir* so'zi ham aniqlamoqda.

*Agar royining mehri ko'rguzsa tob,*

*Quyosh zarradek aylabon iztirob.*

*Ne tong gar quyosh iztirob etsa fosh,*

*Anga chunki har zarradur bir quyosh.* (Saddi Iskandariy, 49-bet).

Ma'nosi: *Agar uning fikr quyoshi nur sochadigan bo'lsa, quyosh bir zarraga o'xshab, simobdek titrab qoladi. Agar quyosh iztirobga tushsa, buning hech qanday ajablanarli joyi yo'q, zero, uning fikrining bir zarrasi ham quyoshdir* (Saddi Iskandariy, nasriy tabdil, 51-bet).

Yuqorida keltirilgan misolda *zarradek* so'zi sifat turkumiga oid bo'lib, quyoshning qanday iztirob chekishi tasvirlangan. To'rtlikning oxirgi misrasida kelgan *zarra* so'zi ot turkumiga tegishlidir.

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida *zar* va *zarra* asoslari bilan bog'liq leksemalar juda ko'p uchraydi va ularning tahlilini yana davom ettirish mumkin.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, barcha so'z turkumlari kabi ot, sifat ham fors-tojik tilida mustaqildir. Ot va sifatlarning gapdagi morfologik belgilari Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida ham kuzatiladi. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida boshqa turkumdagi so'zlar qatorida ot va sifatlarga ham to'xtalib, bunday so'zlarning nutqni boyitishdagi rolini chuqur tahlil qilib bergan edi. "Saddi Iskandariy" dostonidagi "zar" va "zarra" so'zlari hamda ular asosida boshqa so'zlar yasalishi natijasida gapda nafaqat ot, balki sifat, ravish turkumiga oid bo'lishi ham yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. – Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1-jild. 1983. –B. -618-623.
2. Алимова З. Ўзбек тилидаги форсча-тожикча ўзлашмаларнинг фонетик, лексик-семантик хусусиятлари. Ф.ф.б.ф.д.(PhD) диссертацияси.–Фарғона, 2022. –Б. -162.
3. Воҳидов Э. Сўз латофати. –Ташкент, Ўзбекистон нашриёти, 2014. –Б.4-152.
4. Omonov A. Navoiy asarlarida so'zlarning ramziy timsollar sifatida qo'llanishi. Til va adabiyot masalalari. Respublika oily o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining bilmiy maqolalar to'plami. 2017, 4-son. –B.-113-117.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд. –Ташкент, Университет, 2009.-Б.-102.
6. Рубинчик Ю.А. Персидско-русский словарь. –Москва, Русский язык. 1983. –С. 834.
7. Soyipov S., Xolmurodov X. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tilida forscha fe'llarning qo'llanilishi. Zamonaviy uslubshunoslikning dolzarb muammolari. –Far'ona, 2017. –B.-69.
8. Soyipov S., Xolmurodov X. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asari tilida istifoda etilgan forscha yasama otlar. Zamonaviy uslubshunoslikning dolzarb muammolari. –Far'ona, 2017. –B.-58-62.
9. Umarova N. Alisher Navoiy – badiiy so'z ustasi. –Farg'ona, 2010. –B.5-53.
10. Umarova N. Olu so'zining etimologiyasi. Filologiyaning dolzarb masalalari. –Farg'ona, 2018. –B.-59-61.